Matnni tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish

Ochilova Muxlisa Abdurahmon qizi

E-mail: ochilovamuxlisa375@gmail.com

Djurayeva Nigina G'ayrat qizi

E-mail:djurayevanigina44@gmail.com

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada matn tushunchasi va unga turli olimlar tomonidan berilgan turlicha izohlar, matn turlari hamda matnni tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish tamoyillari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Matn, Gauzenglas, Galperin, matn turlari, mikromatn, makromatn, ifoda maqsadiga ko'ra matn turlari, matn tahlili.

Abstract: This article provides information on the concept of text and its various interpretations by different scholars, types of texts, and principles of text analysis from the point of view of linguistics and literary studies.

Key words: Text, Gauzenglas, Galperin, types of text, microtext, macrotext, types of text according to the purpose of expression, text analysis.

Аннотация: В данной статье представлена информация о понятии текста и его различных интерпретациях разными учеными, типах текстов и принципах анализа текста с точки зрения лингвистики и литературоведения.

Ключевые слова: Текст, Гаузенглас, Гальперин, типы текста, микротекст, макротекст, типы текста по цели выражения, анализ текста.

Matn tushunchasiga turli olimlar turlicha ta'rif beradilar. Ba'zi olimlar matnni nutq birligi, ba'zilari esa til birligi sifatida talqin etadilar. Matnnig nutq kategoriyasi ekanligi masalasi bevosita "nutqiy jarayonning o'zi" va "nutqiy faoliyat natijasi" tushunchalari bilan uzviy bog'liqdir. Chex olimi K.Gauzenglas matnni ham nutqiy faoliyat sifatida, ham nutqiy faoliyat mahsuli sifatida og'zaki nutqiy jarayon,deb talqin qiladi.

LR. Galperinninig fikricha, matn yozma nutq mahsulidir, og'zaki nutq esa turli qaytariqlarni, uzun-yuluq gaplarni ham o'z ichiga oladi va uni tekshiruv ob'yekti bola oladigan matn deb e'tirof etish maqsadga muvofiq emas. Fransuz tilshunosi R.Bart: "Ichki bog'lanishli bo'lgan, muloqot maqsadida mazmunan o'zaro birikkan gaplardan tashkil topgan nutqning har qanday parchasi matn deb ataladi" desa, polyak tilshunosi A.Boguslavskiy matnni bir necha gapdan tashkil topgan nutqiy material tarzida izohlaydi. Bunda u asosiy e'tiborini muallif nima haqida gapirayotgani va uning mazmuniga emas, balki mazkur matn qanday komponentlardan tuzilayotganiga qaratadi.[Qurbonova,2014,6-b] K.Kojevnikova tadqiqotlarida asosiy e'tibor matnning bog'lanishli nutq mahsuli ekanligiga

qaratiladi va uning mazmuniy jihatdan tugallangan bo‘lishi alohida uqtiriladi. Olimaning matn komponentlari o‘zaro ma’no jihatdan ham, grammatik jihatdan ham bog‘lanishli bo‘lishi haqidagi fikri e‘tiborga molikdir, chunki ko’pchilik tilshunoslar matn komponentlarini faqat mazmuniy bog’lanishli bo’lishini ta’kidlaydilar va ularning leksik-grammatik vositalar orqali bog’lanishini nazardan chetda qoldiradilar.

O’zbek tilshunosi E.Qilichev «Matnning lingvistik tahlili» deb nomlangan kitobida «Matn – hamma elementlari o’zaro zich aloqada bo’lgan va avtor nuqtai nazaridan ma’lum bir maqsadga yo’naltirilgan nominativ – estetik axborotni ifodalovchi murakkab tuzilma» degan ta’rifni keltiradi.

I.R.Galperin matnning ma’lumot berish, bo’linuvchanlik, kogeziya (aloqalar sistemasi), kontinium (vaqt va makon izchilligi), qismlar avtosemantiyasi, retrospektsiya va prospektsiya, modallik, yaxlitlik va tugallanganlik kabi sakkiz kategoriyasi mavjudligi haqida ma’lumot beradi.[Muhamedova,2011,4-b]

Umuman matn, deyilganda nutqiy jarayon mahsuli bo’lgan, tugallangan, yozma shaklda mavjud bo’lgan, adabiy shakllangan, superfrazali birliklardan tuzilgan, leksik, grammatik, logik, stilistik aloqalar bilan bog’langan, aniq maqsadli va pragmatik qurilmali nutqiy asarni tushunmoq kerak. Tilshunos I.Rasulovning fikricha, gapdan katta birlik murakkab sintaktik butunlik bo’lib, u fikran va sintaktik jihatdan o’zaro bog’liq bo’lgangaplar birlashmasidan iborat. Unda fikr gapga nisbatan ancha to’liq bo’ladi. Hozirgi davrda matn turlari va ularga xos bo’lgan belgi-xususiyatlarni aniqlash davom etmoqda.

Matnni turlarga ajratishda hajmiga ko’ra va ifoda maqsadi va mazmuniga ko’ra turlarga ajratiladi. Matnni hajm belgisiga ko’ra ikkiga ajratamiz: Minimal matn (mikromatn) va maksimal matn (makromatn). Ifoda maqsadiga ko’ra matnni quyidagi tiplarga bo’lib chiqish mumkin:

1.Hikoya mazmunli matn.

2.Tasviriy matn.

3.Izoh mazmunli matn.

4.Didaktik matn.

5.Xabar mazmunli matn.

6.Buyruq mazmunli matn.

7.Hissiy ifoda mazmunli matn.[Muhamedova, 2011,51-b]

Matnni ikki xil muqtai nazardan tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish mumkin. Tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinganda matnning lingvistik xususiyatlari, fonetik, morfologik, leksik, sintaktik belgilari, matnning tarkibiy qismlarini bog’lovchi vositalarga e’tibor qaratiladi. Masalan, *Ertalab-chi, oyi, yomg’ir yog’di. Qattiq*

yomg'ir yog'di. Siz bahor yomg'irini yaxshi ko'rardingiz... Keyin oftob chiqib ketdi. Qarang, oftob charaqlab yotibdi…(O'.Hoshimov).

Ushbu matnning shakllanishida va bog'lanishida vaqt ma'noli birliklarning alohida xizmati bor. Birinchi gapda ertalab leksemasi yordamida sutkaning shu qismida sodir bo'lgan tabiat hodisasi haqidagi informatsiya ifodalanyapti. Keyingi gaplarda ifodalangan hodisalar ham ayni vaqt birligida ketma-ketlikda ro'yobga chiqqan. Ya'ni*: ertalab → yomg'ir yog'di → qattiq yog'di → oftob chiqdi → charaqlab ketdi.*

Matnni adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilishda uning badiiy xususiyatlariga , umda qo'llangan badiiy san'atlarga e'tibor beriladi. Masalan,

*Ko'zung ne **balo qaro** bo'lubdur,*

*Kim jong'a **qaro balo** bo'lubdur*

Ushbu baytda balo va qaro so'zlari ishtirokida tardu aks san'ati qo'llanilgan. Yoki

Shabistonida** tug'di **bir yangi oy ,

Yangi oy** demakim, **mehri olamoroy

Bu baytda **shabiston, yangi oy, mehri olamoroy** so'zlari vositasida **istiora** san'ati yuzaga keltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Muhamedova S. Matn lingvistikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent,2011

2. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. O'quv qo'llanma. – Toshkent,2008

3. Qurbonova M. Matn tilshunosligi. O'quv qo'llanma. – Toshkent,2014